

O‘TKIR HOSHIMOV HIKOYALARIDA FOLKLOR NAMUNALARINING O‘ZIGA XOSLIGI

Urazbayev Muratbay Amanbayevich,

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI 10.00.02 O‘zbek adabiyoti ixtisosligi

2-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: Urazbaevm96@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek xalqining atoqli adibi O‘tkir Hoshimov ijodi, uning hikoyalaridagi o‘ziga xos uslub va asarlarida shaxs xarakterini shakllantirish borasidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: folklor, xalq og‘zaki ijodiyoti, hikoyachilik, mavzu va g‘oya, xalqona ruh, maqol, ruhiy kechinma.

Аннотация. В данной статье освещается творчество известного узбекского писателя Уткира Хошимова, его уникальный стиль в рассказах и мысли о формировании характера личности в его произведениях.

Ключевые слова: фольклор, устное народное творчество, повествование, тема и идея, народный дух, пословица, духовное переживание.

Annotation. This article highlights the work of the renowned Uzbek writer Utkir Hoshimov, his unique style in his stories, and his thoughts on shaping personality in his works.

Keywords: folklore, oral folk art, storytelling, theme and idea, folk spirit, proverb, spiritual experience.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, xalqimizning milliy o‘y va ma’naviy ildizlarining asosi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodini o‘rganishga e’tibor har qachongidan ham kuchaydi. Chunki xalqimizning ko‘p asrlar davomida qaror topgan umummilliy qadriyatlarini tiklashda folklor eng asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Zero, “Yoshlar o‘rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyatini va milliy qadriyatlarini keng targ‘ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish zarur” [1]. Demak, axborot oqimi shiddat bilan kirib kelayotgan hozirgi davrda shonli tariximiz aks etgan og‘zaki ijod namunalarini saqlash, ajdodlarimiz yaratgan nomoddiy merosni avaylash, bu yodgorliklarni kelajak avlodga yetkazish folklorshunoslar oldida turgan muhim vazifalardir.

O‘tkir Hoshimov o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ijodi o‘ziga xos uslub va mavzular bilan ajralib turadi. Uning o‘ziga xos jihati asarlarining sodda va ravon tilidir. Asarlari o‘quvchini o‘ziga rom etib, hayotiy va samimiy dialoglari orqali realistik taassurot uyg‘otadi. Yozuvchi qahramonlarining ichki dunyosini chuqur ochib berishga katta ahamiyat bergan. Ularning ruhiy kechinmalari, his-tuyg‘ularini o‘quvchiga yaqin va tushunarli qilib ifodalaydi. Shuningdek, yozuvchi milliy qadriyatlarni e‘zozlab, ularni asarlarida yorqin tarzda aks ettiradi. O‘zbek xalqining urf-odatlarini, an‘analari, o‘ziga xos dunyoqarashi asarlarida keng o‘rin olgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adib hikoyalarining badiiy qimmatini belgilovchi muhim omillardan biri – unda xalqona tafakkur mahsuli bo‘lgan maqol va hikmatli so‘zlarning faol qo‘llanishidir. Bu birliklar nafaqat matnning milliy ruhini kuchaytiradi,

balki obrazlarning xarakterini ochish, muallifning estetik pozitsiyasini ifodalash va voqelikni xalqona nuqtai nazardan baholash vazifasini ham bajaradi. Ayniqsa, yozuvchi hikoyalarining boshqa tillarga tarjima qilinishi jarayonida maqol va hikmatli soʻzlarning badiiy imkoniyatlari yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday birliklar tilning milliy mentaliteti bilan uzviy bogʻliq boʻlib, ularni boshqa tilga oʻgirish tarjimonning yuqori mahoratini talab etadi. Shuningdek, adibning “Dunyoning ishlari” asarida insoniy munosabatlar haqida shunday fikr beriladi: “Yaxshi soʻz ham odamning koʻngliga malham boʻlishi mumkin.”[7] Bu ibora hikmatli fikr sifatida qahramonlarning ruhiy holatini ochib beradi.

Yozuvchi oʻz asarlarida milliy ruh, xalqona donolik va hayotning achchiq haqiqatlarini teran aks ettirgan. Uning qahramonlari oddiy kishilar – dehqonlar, ishchilar, oʻqituvchilar, bolalar boʻlib, ular orqali yozuvchi katta mavzularni koʻtarib chiqqan. Oʻtkir Hoshimovning ijodi oʻzbek tilining boyligi va jozibasini yaqqol namoyon qiladi. Uning asarlari asosida hayotning turfa voqealari yotadi, bu esa kitobxon qalbiga yanada yaqin boradi. Inson qalbini, ichki kechinmalarini ifodalashda uning ijodi benazir. Oʻtkir Hoshimov ijodi –oʻzbek xalqining maʼnaviy boyligi va adabiy merosining yorqin sahifalaridan biridir. Akademik Baxtiyor Nazarov Oʻtkir Hoshimov ijodiga “mavj urgan daryo” – deya taʼrif beradi. [1] Yozuvchi ijodiga nazar tashlar ekanmiz, bir qancha asarlarida qahramonlarning ruhiy holatlari toʻla-toʻkis namoyon boʻlganiga guvoh boʻlamiz. Adibning “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” asarlarida ayrim ruhiy talotumlar va baʼzan butun boshli qahramonlar tizimi qiyofasi aks etsa, “Bahor qaytmaydi”, “Dunyoning ishlari” singari qissalarida esa qalb manzaralari, koʻngil dardlari va ayol obrazi keng miqyosda talqin etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Oʻtkir Hoshimovning shu kungacha yaratgan katta-kichik asarlarining hammasida oʻz uslubini yaratishga va mukammallashtirishga intilib keldi. Uning asarlarida, ayniqsa, hikoyalarida ikki xususiyatning uygʻunlashib ketganini koʻramiz. Birinchidan, adib badiiy asarni yengil tashviqot vositasiga, oddiy targʻibot quroliga aylantirmaydi, shu kunning dolzarb masalalari haqida badiiylashgan shiorlar va xitoblar aytish yoʻlidan bormaydi, balki har bir asarida zamonaviy voqealar muhitida biron muhim va unutilib ketgan yoki unutilayotgan insoniy qadriyatlar yetakchi oʻrin tutadi. Muallif talqinicha inson hayotining uzoq masalalarini qoʻyib, har bir fikrlovchi odamni tashvishga solmay qoʻymaydigan savollarga javob izlaydi. Ikkinchidan esa, shu muammolarning hammasi, eng murakkab savollarga javob izlash kishini hayajonga soluvchi yuksak badiiy shakllarda amalga oshiriladi, hayotdan olingan, bizga tanish, oʻzimiz tevarak-atrofimizda uchratib turadigan odamlarning taqdirida ifodalanadi. Eng muhimi esa bu odamlar quruq gʻoyalar tajassumi emas, oʻz qiyofasiga, shakl-u shamoyiliga, taqdiriga ega boʻlgan, insoniy jozibasi kuchli shaxslar sifatida namoyon boʻladilar.

Tahlil va natijalar. O‘tkir Hoshimov tush orqali inson qalbidagi yashirin kechinmalar, hayotning nozik haqiqatlarini ochib beradi. Bu tush nafaqat qahramon uchun, balki kitobxon uchun ham ruhiy sinov bo‘lib, hayot haqida mulohaza yuritishga undaydi. Hikoya insoniy qadriyatlar, hayotdagi tanlovlar va insonning ichki dunyosidagi murakkab ziddiyatlar masalasini ko‘taradi. Yozuvchi insonning har bir harakati, qo‘rquvi va istagi uning taqdiriga qanday ta‘sir qilishi haqida o‘ylashga undaydi. “Hurkitilgan tush” – hayotning murakkab, ba‘zan anglab bo‘lmas haqiqatlari bilan yuzlashuvdir.

“Hurkitilgan tush” hikoyasi bosh qahramonlari Anvar va Halima hisoblanadi. Bu asarga ham yozuvchi ayol obrazini qahramon darajasiga ko‘targan. Halimaning onasi boshqa bilan ketib o‘zini ham oilasini ham sharmanda qiladi. Keyin eri Hakim sassiq qizini shahardan olib keladi, lekin qizi baribir onasining yoniga, shaharga ketadi. Onasini sog‘inganini ushbu jumlar orqali sezish qiyin emas:

“Ochil-ochil oq toshlar-a...

Men onamni ko‘rayin-a...

Diydoriga to‘yayin-a...

Oyijonim... ko‘rayin-a,

Diydoriga...”

Keyin birdan jim bo‘lib qoldi. Allanimadan qo‘rqqanday, sekin boshimni ko‘tarib qaradim. Halimaning ko‘zi jiqqa yosh edi.[3]

Hikoyada ayol obrazi turlicha talqin qilinadi. Biri Halimaning onasi, u eri va farzandi bo‘lsa ham ularga xiyonat qilib ketgan xiyonatkor ayol obrazi bo‘lsa, biri Halima, hayotda onasining xatosini takrorlamay maqsad tomon intilgan va unga erishgan qanoatli ayol obrazi hisoblanadi.

Bundan tashqari O‘tkir Hoshimov hikoyalarda maqol va hikmatli so‘zlar ko‘pincha qahramonlar nutqida yoki muallif izohida qo‘llanadi. Bu birliklar qahramonning dunyoqarashi va hayotiy tajribasini ifodalaydi. Yozuvchi xalq donishmandligini ifodalovchi bunday birliklar orqali voqelikni xalqona baholash mezonini yaratadi. Masalan, ayrim hikoyalarda qahramonlar nutqida xalq maqollari qo‘llanib, ular orqali insoniy munosabatlar yoki hayotiy haqiqatlar ifodalanadi. Bu esa hikoyaning badiiy ta‘sirini kuchaytiradi.

O‘tkir Hoshimovning “O‘zbeklar” hikoyasida ham o‘zbek xalqining eng go‘zal fazilatlarini aks ettirgan asarlaridan biridir. Hikoyada milliy qadriyatlar realistik tarzda tasvirlangan bo‘lib, unda insoniy munosabatlarning ahamiyati yorqin aks ettirilgan. Syujet oddiy bo‘lsa-da, uning ta‘sir kuchi juda yuqori. Asarning badiiy uslubi, jonli obrazlari va realistik tasvirlari uni milliy adabiyotimiz durdonalaridan biriga aylantirgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, O‘tkir Hoshimov o‘zining hayotiy, samimiy va teran mulohazali asarlari orqali nafaqat o‘zbek adabiyotini boyitdi, balki o‘quvchilarni insoniylik va ma‘naviy yuksaklik sari yetakladi. Uning ijodi doimo millat ruhiyati va inson qalbining murakkab olamini chuqur aks ettirgan. O‘tkir Hoshimov

o‘zining har bir asarida folklorning u yoki bu namunasini qo‘llaganligini ko‘ramiz. Masalan, maqol, qo‘shiq, iboralar, afsona va rivoyatlar, ertaklar, marsiyalar. Ushbu janrlar folklorning katta ahamiyatga ega bo‘lgan janrlari hisoblanib, adib o‘z hikoyalari bu kabi folklor janrlaridan unumli foydalana olgan. Uning bir qator hikoyalari mazmuniga folklor janrlarining uyg‘unlashib ketganini kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси Халқ сўзи. –Тошкент, 2017 йил, 16 январь. – Б. 4.
2. Saydulla Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti.- T.: “Yangi asr avlodi”, 2005. b 222
3. Dilbar Hasanova. O‘zbek hikoyachiligi va uning taraqqiyot yo‘li. “Eurasian Journal Of Academic Research”, 2023.
4. Nilufar Hajikurbanova.Hozirgi adabiy jarayondagi hikoyalar badiiyati, Science and innovation international scientific journal, ISSN:2181-3337, №4 2022, -bet 103.
5. Dilbar Hasanova. O‘zbek hikoyachiligi va uning taraqqiyot yo‘li. “Eurasian Journal Of Academic Research”, 2023.
6. Nilufar Hajikurbanova. Hozirgi adabiy jarayondagi hikoyalar badiiyati, Science and innovation international scientific journal, ISSN:2181-3337, №4 2022, -bet 103.
7. Ҳошимов Ў. Сайланма: 2 жилд. I-ж. Нурли дунё (Дунёнинг ишлари: қисса. Нур борки, соя бор: роман. Тушда кечган умрлар: роман. Хикоялар). -Т.: Шарқ, 1998
8. Ҳошимов V. Баҳор қайтмайди: Сайланма. Қисса ва хикоялар. Т.: F.Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992.
9. Nazarov B. Xalq mehrini qozongan adib T. O‘zbekiston 2013. –480-b

